SIRDARYO VILOYATIDA QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARI YETISHTIRISH TARKIBINING DINAMIKASI VA TARKIBIY O‘ZGARISHLARI TAHLILI (2015–2020 YY.)

Qilichev Zoyir Toxir o‘g‘li
zoyirqilichev555@gmail.com
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada 2015–2020 yillar oralig'ida Sirdaryo viloyatida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishning xo‘jaliklar toifalari hamda tarmoqlar (dehqonchilik va chorvachilik) kesimidagi tarkibiy dinamikasi tahlil qilingan. Tadqiqot davomida fermer xo‘jaliklari, dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hamda qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning yalpi va tarmoqlararo ulushlari dinamikasi o‘rganilib, klaster tizimiga o‘tish arafasidagi va dastlabki bosqichidagi institutsional o‘zgarishlarning ta'siri baholangan.

Kalit so‘zlar: Sirdaryo viloyati, qishloq xo‘jaligi, fermer xo‘jaliklari, dehqon xo‘jaliklari, dehqonchilik, chorvachilik, tarkibiy dinamika, agrokllasterlar.

Kirish. 2015–2020 yillar O‘zbekiston Respublikasi agrar sektorida tub institutsional islohotlar poydevori qo‘yilgan va agroklasterlar tizimi amaliyotga joriy etila boshlangan muhim davr hisoblanadi. Ma'lumki, ushbu davrda agrar sohani modernizatsiya qilish, yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, mahsulot yetishtirish va qayta ishlashning yaxlit zanjirini shakllantirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Sirdaryo viloyati o‘zining geografik joylashuvi va agrosanoat salohiyati bilan respublika qishloq xo‘jaligi va sanoatida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Viloyatda dehqonchilik (xususan, paxtachilik, g'allachilik, sabzavotchilik hamda polizchilik) va chorvachilik tarmoqlari o‘zaro hamohang rivojlanib kelmoqda. 2015–2020 yillarda sohadagi institutsional transformatsiyalar natijasida viloyatda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishning tashkiliy-huquqiy va tarmoqlararo tarkibida e'tiborga molik siljishlar kuzatildi.

Tadqiqotning dolzarbligi 2015-yildan 2020-yilgacha bo‘lgan davrda xo‘jalik toifalari (fermer xo‘jaliklari, dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hamda qishloq xo‘jaligi tashkilotlari) hamda tarmoqlar (dehqonchilik va chorvachilik) o‘rtasidagi ulushlarning o‘zgarish dinamikasini ilmiy jihatdan baholash va o‘ziga xos qonuniyatlarni aniqlash zarurati bilan belgilanadi.

Tadqiqotning maqsadi — Sirdaryo viloyatida 2015–2020 yillarda qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtirishning toifalar bo‘yicha tarkibiy dinamikasini va dehqonchilik hamda chorvachilikdagi o‘zgarishlarini ilmiy tahlil qilish hamda amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi va Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasining 2015–2020 yillardagi rasmiy ma'lumotlari hamda statistik to‘plamlari asosiy axborot bazasi bo‘lib xizmat qildi. Tahlil jarayonida quyidagi metodik usullardan foydalanildi:

- **Tizimli va tarkibiy tahlil:** Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti hamda dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlari bo‘yicha xo‘jalik toifalarining ulushini (foizda) baholash uchun;
- **Dinamik qiyoslash usuli:** 2015-yildan 2020-yilgacha bo‘lgan vaqt oralig'ida ko‘rsatkichlarning o‘sish va pasayish trendlarini aniqlash uchun;
- **Grafik va analitik vizuallashtirish usuli:** Tarkibiy o‘zgarishlar va tarmoqlararo proporsiyalarning ko‘rgazmali tahlilini shakllantirish uchun;

- **Mantiqiy va umumlashtirish usullari:** Agroklasterlar tashkil etilishi va institutsional islohotlarning natijalarini umumlashtirib, ilmiy xulosalar berish uchun.

Tadqiqot natijalari. Sirdaryo viloyatida 2015–2020 yillarda qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtirishning umumiy va tarmoqlar bo‘yicha tarkibiy ko‘rsatkichlari 1-jadvalda batafsil keltirilgan.

1-jadval.

Sirdaryo viloyatida qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtirishning tarkibi (2015–2020 yy., foizda)

Yillar	Barcha toifadagi xo‘jaliklar	Shu jumladan:								
		Jami			Dehqonchilik			Chorvachilik		
		Fermer xo‘jaliklari	Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	Qishloq xo‘jaligi tashkilotlari	Fermer xo‘jaliklari	Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	Qishloq xo‘jaligi tashkilotlari	Fermer xo‘jaliklari	Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	Qishloq xo‘jaligi tashkilotlari
2015	100,0	38,7	58,3	3,0	59,1	37,4	3,5	3,9	94,1	2,0
2016	100,0	38,2	59,0	2,8	60,3	36,4	3,3	4,0	94,1	1,9
2017	100,0	36,7	61,9	1,4	58,5	40,0	1,5	2,0	96,7	1,3
2018	100,0	28,7	65,5	5,8	50,8	41,3	7,9	2,4	94,2	3,4
2019	100,0	34,6	58,4	7,0	56,7	34,5	8,8	2,9	92,7	4,4
2020	100,0	35,8	57,7	6,5	62,3	27,8	9,9	3,0	94,7	2,3

Manba: Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

1-diagramma (Analitik). Jami qishloq xo‘jaligi mahsulotida xo‘jaliklar toifasi ulushlari dinamikasi (%)

Xo‘jaliklar toifasi	2015	2016	2017	2018	2019	2020
Fermer xo‘jaliklari	38,7%	38,2%	36,7%	28,7%	34,6%	35,8%
Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	58,3%	59,0%	61,9%	65,5%	58,4%	57,7%
Qishloq xo‘jaligi tashkilotlari	3,0%	2,8%	1,4%	5,8%	7,0%	6,5%

2-diagramma (Analitik). Qishloq xo‘jaligi tashkilotlarining tarmoqlar kesimidagi ulushi dinamikasi (%)

Tarmoqlar	2015	2016	2017	2018	2019	2020
Dehqonchilikdagi ulushi	3,5%	3,3%	1,5%	7,9%	8,8%	9,9%
Chorvachilikdagi ulushi	2,0%	1,9%	1,3%	3,4%	4,4%	2,3%

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, 2015–2020 yillar oralig'ida Sirdaryo viloyatida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish tarkibida quyidagi asosiy bosqichli va strukturaviy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi:

1. Jami qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi o‘zgarishlar: 2015-yilda jami mahsulot hajmining 58,3 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 38,7 foizi fermer xo‘jaliklariga hamda 3,0 foizi qishloq xo‘jaligi tashkilotlariga to‘g'ri kelgan bo‘lsa, 2020-yilga kelib ushbu ulushlar mos ravishda 57,7%, 35,8% va 6,5% ni tashkil etdi. E'tiborli jihati, 2018-yilda fermer xo‘jaliklari ulushi 28,7 foizga tushib, dehqon va tomorqa xo‘jaliklari ulushi 65,5 foizga oshgan bo‘lsa, 2019–2020 yillardan boshlab agrokllasterlarning tashkil etilishi hisobiga qishloq xo‘jaligi tashkilotlarining ulushi 6,5 foizga yetdi (2015-yilga nisbatan 2,1 baravar o‘sish).

2. Dehqonchilik tarmog'idagi siljishlar: Dehqonchilikda fermer xo‘jaliklari yetakchi mavqeni saqlab qoldi (2015-yildagi 59,1% dan 2020-yilda 62,3% ga oshdi). Shu bilan birga, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining dehqonchilikdagi ulushi 2015-yildagi 37,4 foizdan 2020-yilda 27,8 foizga — ya'ni 9,6 foiz punktga kamaydi. Eng muhim o‘sish ko‘rsatkichi qishloq xo‘jaligi tashkilotlarida kuzatilib, ularning dehqonchilikdagi ulushi 2015-yildagi 3,5 foizdan 2020-yilda 9,9 foizga (ya'ni 2,8 baravarga) ko‘paydi.

3. Chorvachilik tarmog'idagi ko‘rsatkichlar: Chorvachilik tarmog'ida dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining ustunligi saqlanib qoldi. 2015-yilda chorvachilik mahsulotlarining 94,1 foizi ushbu toifa hisobiga to‘g'ri kelgan bo‘lsa, 2020-yilda bu ko‘rsatkich 94,7 foizni tashkil etdi. Fermer xo‘jaliklarining chorvachilikdagi ulushi 3,9% dan 3,0% ga, tashkilotlar ulushi esa 2,0% dan 2,3% ga to‘g'ri keldi, bu esa ushbu davrda chorvachilikda sanoat usulidagi yirik majmualar ulushi hali past bo‘lganligini tasdiqlaydi.

Muhokama. 2015–2020 yillardagi ma'lumotlar tahlili Sirdaryo viloyati qishloq xo‘jaligida institutsional o‘zgarishlarning ikki xil dinamikasini ko‘rsatmoqda. 2015–2017 yillarda an'anaviy xo‘jalik yuritish shakllari saqlanib qolgan bo‘lsa, 2018–2020 yillarda tub tarkibiy o‘zgarishlar boshlandi. Xususan, 2018-yildan boshlab O‘zbekistonda paxta-to‘qimachilik klasterlarining tashkil etilishi va agrar sektorda bozor mexanizmlarining joriy etilishi natijasida qishloq xo‘jaligi tashkilotlarining dehqonchilikdagi ulushi 3,5% dan 9,9% ga yetdi. Bu holat klasterlar tomonidan to‘g'ridan-to‘g'ri yer maydonlarida ilg'or va tejamkor texnologiyalarning qo‘llanilishi bilan bog'liqdir.

Biroq, chorvachilik tarmog'ida 94 foizdan ortiq ko‘rsatkichning dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida to‘planib qolishi tarmoqda tovar ishlab chiqarish darajasining pastligi va intensiv ozuqa bazasining yetarsizligini ko me'rsatadi. 2015–2020 yillar oralig'ida chorvachilikni sanoatlashtirish boshlang'ich bosqichda bo‘lgan.

Xulosa va takliflar. 2015–2020 yillarda Sirdaryo viloyati qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish dinamikasi tahlili natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Qishloq xo‘jaligi tashkilotlarining (agrokllaster va korxonalar) yalpi mahsulotdagi ulushi 2015-yildagi 3,0 foizdan 2020-yilda 6,5 foizga oshib, dehqonchilikda bu ko‘rsatkich 9,9 foizga yetdi.

2. Dehqonchilikda fermer xo‘jaliklari yetakchi toifa (62,3%) bo‘lib qolayotgan bir paytda, dehqon xo‘jaliklarining dehqonchilikdagi ulushi 37,4 foizdan 27,8 foizga qisqardi.

3. Chorvachilik tarmog'i aksariyat hollarda (94,7%) dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g'ri kelib, tarmoqda tijorat kooperatsiyasini rivojlantirish zaruratini ko‘rsatdi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

- Agrokllasterlar samaradorligini oshirish: Dehqonchilikda klasterlar va agrofirmalarning innovatsion va suv tejamkor korporativ infratuzilmasini kengaytirish.
- Chorvachilikda kooperatsiya tizimini shakllantirish: Tomorqa va dehqon xo‘jaliklarini birlashtiruvchi veterinariya va ozuqa yetkazuvchi xizmat kooperatsiyalarini yo‘lga qo‘yish.
- Fermer xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash: Dehqonchilikda yetakchi bo‘lgan fermer xo‘jaliklarining agrokllasterlar bilan teng huquqli moddiy-texnik va moliyaviy integratsiyasini ta'minlash.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son 'O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g'risida'gi Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi' statistik to‘plami. – Toshkent, 2015–2020 yy.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son 'O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida'gi Farmoni.

4. Qilichev, Z. T., & Shukurova, S. O. (2025). SIRDARYO VILOYATI QISHLOQ XO‘JALIGINING HUDUDIY TARKIBI VA BUGUNGI RIVOJLANISH HOLATI. *Экономика и социум*, (2-2 (129)), 121-126.

5. O‘G‘Li, Q. Z. T., & Oybek, U. (2024). SIRDARYO VILOYATI ISHLAB CHIQARISH KUCHLARINI HUDUDIY TASHKIL ETISHNING TASHKILIY ASOSLARI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, *1*(6), 10-15.

6. Umirzaqov, O. A., & Anarboyeva, S. M. (2023). SIRDARYO VILOYATI YER-SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ASOSIY YO ‘NALISHLARI. *Экономика и социум*, (12 (115)-1), 824-828.

O‘ZBEKISTONDA LALMIKOR DEHQONCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Navotova Dilnoza Ibrogimovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

e-mail: dnavotova@mail.ru

ORCID: 0009-0002-8497-6563

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekistonda lalmikor dehqonchilikni rivojlantirishning hududiy, tabiiy-iqtisodiy va tashkiliy asoslari tahlil qilingan. Lalmikor dehqonchilikning mamlakat qishloq xo‘jaligidagi o‘rni, hududiy ixtisoslashuvi hamda uning rivojlanishiga ta’sir etuvchi tabiiy-iqlimiy, agroiqtisodiy va ijtimoiy omillar yoritilgan. Lalmi yerlarni foydalanishga kiritishning hududiy taqsimoti tahlil qilinib, ularning ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish, hosildorlikni oshirish, zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *lalmikor dehqonchilik, lalmi yerlar, hududiy ixtisoslashuv, agroiqtisodiy salohiyat, tabiiy-iqlimiy omillar, yer resurslari, qishloq xo‘jaligini hududiy tashkil etish, GIS texnologiyalari.*